



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF**  
**UZBEKISTAN**  
**BUKHARA STATE UNIVERSITY**

200117, Buxoro, M.Iqbol ko‘chasi, 11 uy, tel: 0 (365) 221-29-14 faks: 0 (365) 221-27-07 E-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)

**30 iyun 2025 yil.**

**02/890-son**

**Buxoro sh.**

**Oliy ta’lim fan va  
innovatsiyalar vazirligiga**

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining axborot xavfsizligi siyosatini tasdiqlash va uni vazirlik tizimida joriy etish, shuningdek, axborot va kiberxavfsizlikni ta’miniash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi 2024-yil 2-apreldagi 109-son buyrug‘ining tegishli bandlari bo‘yicha ma’lumot

**2-ilova 8.2 bandiga:** Buxoro davlat universitetining rasmiy veb-sayti <https://buxdu.uz> domeni orqali faoliyat yuritadi. Ushbu veb-sayt ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan serverlarda, xususan, Arsenal D xosting xizmatida saqlanadi. Veb-saytning axborot xavfsizligini ta’minlash maqsadida unga SSL (Secure Sockets Layer) sertifikatini o‘rnatilgan bo‘lib, mazkur sertifikat 2025-yil 23-sentyabrgacha amal qiladi. Bundan tashqari, sayt xavfsizligini yanada mustahkamlash maqsadida serverga Platin Security xavfsizlik tizimi integratsiya qilingan.

**2-ilova 8.3 bandiga:** Reja-jadval asosida olib borilgan texnik ishlar natijasida universitetining rasmiy veb-sayti “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasining Veb-ilovalarni himoya qilish tizimi (WAF — Web Application Firewall)ga to‘liq integratsiya qilindi. Ushbu integratsiya veb-saytning tashqi tahdidlarga nisbatan barqarorligini oshirish, zararli trafikni aniqlash va bloklash, hamda foydalanuvchi ma’lumotlarining himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**2-ilova 8.4 bandiga:** Joriy yilning may oyida “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi va Buxoro davlat universiteti o‘rtasida ikki tomonlama imzolangan 310-W-sonli shartnomaga muvofiq, universitetning rasmiy veb-sayti kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi nuqtai nazaridan ekspertizadan o‘tkazildi. Ekspertiza natijalari asosida veb-resursda uchta yuqori va bitta o‘rta darajadagi axborot xavfsizligi zaifliklari aniqlangan. Mazkur zaifliklar Buxoro davlat universitetining Raqamli ta’lim texnologiyalari departamenti mutaxassislari tomonidan tegishli tarzda bartaraf etildi hamda sayt takroriy ekspertizaga taqdim etildi. Kamchiliklar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida “Kiberxavfsizlik markazi” DUK tomonidan 03-17-01/2658-sonli rasmiy javob xati taqdim etilgan.

**SSL sertifikat**

